

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIIY FANALAR FAKULTETI

GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

REFERATI

MAVZU: Avstarliya

Bajardi: Boboqulov Botir

Navoiy - 2016

MUNDARIJA:

KIRISH

1-BOB. AVSTRALIYA MATERIGINI UMUMGEOGRAFIK XUSUSIYATLARI.

1.1. AVSTRALIYA MATERIGINING GEOGRAFIK O'RNI.

1.2. AVSTRALIYA MATERIGI TABIATI.

2-BOB. AVSTRALIYA MATRIGINING TEKSHIRILISH TARIXI.

2.1. XVI-XVII ASRDA AVSTRALIYANING TADQIQ ETILISHI.

2.2. AVSTRALIYA VA OKEANIYANING GOLLANDLAR TOMONIDAN KASHF ETILISHI.

2.3. AVSTRALIYA VA OKEANIYA XVIII ASRDAN HOZIRGI DAVRGACHA O'RGANILISH TARIXI.

XULOSA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Geografiya-eng qadimgi, shu bilan birga eng yosh fan hisoblanadi. Eng qadimgi ekanligi shundaki, miloddan avvalgi III-II asrlarda yaashagan Eratosfen geografiya faniga zamin yaratgan. Davr talabiga mos ravishda yangi ma'lumotlar asosida doimo ham mazmunan, ham mohiyatiga ko'ra boyib borishi geografiyaning yosh fan ekanligiga dalil bo'la oladi. Darhaqiqat geografiya dunyo tarixining, sivilizatsiya taraqqiyotining yorqin sahifasini namoyon qiladi, kishilarning dunyoqarashini shakllantirishda eng muhim o'rinda turadi.

Hozirgi davr umumiy tabiiy geografiyasi tabiatni o'rganish va undagi sodir bo'layotgan jarayonlarni ilmiy asosda bilish uchun barcha tabiat komponentlarini har tomonlama tahlil qilib chiqish lozim. Tabiat kompleksi bilan uning komponentlari o'rtasidagi, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni faqat keng qamrovli mushohada qilish orqali, majmuali yonadashuv orqali yechish mumkin. Bu umumiy tabiiy geografiya fanining yangi asrdagi ustivor yo'nalishidir.

Tabiiy geografiyaning o'rganish ob'yekti-geografik qobiqni tahlil qilish uning uning bir butunligini, uni tashkil etuvchi komponentlarning hamda unda ro'y beruvchi tabiiy jarayonlarning o'zaro aloqadorligi va bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq geografik qobiq bir butunligi bilan birga, makonda ya'ni bir joydan ikkinchi joyga farq qilishi bilan ham ajralib turadi. Geografik qobiqning bu xilma-xilligi uning hududiy bo'linishi-differensiatsiyasi deyiladi

Hududiy bo'linish-geografik qobiqning uni tashkil etgan komponentlar hamda unda ro'y beruvchi jarayonlarning o'zaro qarama-qarshi ta'siri natijasida rivojlanishi hosilasidir. Geografik qobiqning ichki tafovutlari- hududiy bo'linishi tasodifiy bo'lmay, umuman butun geografik qobiqning mavjudligi va rivojlanishini boshqaruvchi umumiy qonuniyatlarning namoyon bo'lishidan iboratdir.

Materiklar shimoldan janubga qarab cho'zilgan, kenglik bo'ylab ikki qator bo'lib joylashgan hamda okeanlarga qarama-qarshi (antipod) o'rnashgan.

Materiklar shimoldan janubga cho'zinchoq shaklda va shu yo'nalish bo'yicha torayib boradi, shimolda esa kengayib Shimoliy Muz okeanini o'rab oladi. Antarktidani istisno qilganda, materiklar juft-juft bo'lib joylashgan: Shimoliy Amerika bilan Janubiy Amerika, Yevropa bilan Afrika, Osiyo bilan Afrika. Har bir juft materikni Yer po'stining "singan" yoki "yorilgan" (cho'kkan) mintaqasi ajratib turadi. Bu mintaqa o'tgan joylarda esa orollar, dengizlar, qo'ltiqlar ko'p bo'lib, ular faol seysmik rayonlar jumlasiga kiradi. Karib dengizi, Meksika qo'ltig'i O'rta dengiz, Indoneziya orollari ana shunday mintaqalarda joylashgan.

Materiklar kenglik bo'yicha ikki qator joylashgan. Shimoliy qatorda Yevrosiyo va Shimoliy Amerika, Janubiy qatorda esa Janubiy Amerika, Afrika va Avstraliya o'rmashgan. Shimolda joylashgan materiklarning rel'yef shakllari murakkab, aksincha, janubiy qatordagi materiklarning rel'yefi esa nisbatan soddaroq. Materiklarning joylashish sabablari fanda aniq va yetarli dalillar bilan to'liq isbotlanmasa-da, lekin ko'pchilik olimlar ularni bunday o'rnashishini materiklarning vujudga kelishi bilan bog'lamoqdalar.

1-BOB. AVSTRALIYA MATERIGINI UMUMGEOGRAFIK XUSUSIYATLARI.

1.1. AVSTRALIYA MATERIGINING GEOGRAFIK O'RNI.

Avstraliya yerdagi eng kichik materik. U atrofidagi orollari bilan birga butunlay janubiy yarim sharda joylashgan. Boshqa materiklardan keyin topilgan va keyin aholi o'rnashgan bu materikning nomi latinchada *australis*-janubiy so'zidan kelib chiqqan.

Janubiy tropic Avstraliyani shunday kesib o'tganki, undan shimolda materikning kichik qismi, janubda katta qismi joylashgan. Materikning chekka nuqtalari: shimolda York burni- $10^{\circ}41'$ shimoliy kenglik, janubda janubi-Sharqiy burun- $39^{\circ}11'$ janubiy kenglik, garbda Stip-Poynt burni $113^{\circ}05'$ sharqiy uzunlik,

sharqda Bayron burni $153^{\circ}34'$ sharqiy uzunlik. Avstraliya shimoldan janubga 3200 km, g'arbdan sharqqa 4100 km ga cho'zilgan. Maydoni 7631,5 ming km^2 .

Avstraliya yaqinida shimolda Melvill, Baterst, Grut-Aylend va boshqa yana ham maydaroq orollar, janubda materik sayozligida joylashgan tasmaniya, King, Flinders, Kenguru orollari bor. Derk-Xartog oroli g'arbdagi, Freyzer oroli esa sharqdagi eng yirik orollar hisoblanadi.

Avstraliyani Hind va Tinch okeanlari suvi yuvib turadi. Avstraliya boshqa hech bir materik bilan quruqlik orqali bog'lanmagan. Shu sababli va uning kichikligini nazarda tutib Avstraliya materik orol deb ham ataladi.

Avstraliyadan shimolda va sharqda, Tinch okeanning janubi-g'arbiy qismida kelib chiqishiga ko'ra materik, marjon va vulkan orollardan iborat juda ko'p katta-kichik orollar joylashgan. Bu orollarning hammasi birgalikda Okeaniya deb ataladi.

Okeaniya Tinch okeanida joylashgan orollar to'plamidir. Okeaniya uch qismdan: Polineziya, Melaneziya va Mikroneziyadan iboratdir. Okeaniya orollarining umumiy maydoni taxminan 1,3 mln. km^2 . Okeaniya odatda, bir necha qismga bo'linadi. Avstraliyaga yaqin joylashgan eng yirik orollar Melaneziya deb ataladi. Uning tarkibiga Yangi Zelandiya kiritilmaydi. Ancha janubda joylashgan yangi Zelandiya alohida alohida o'lkaga kiritiladi.

Melaneziya -Solomon, Yangi Gebrid, yangi Kaledoniya va boshqa orollar Avstraliyaga juda yaqin joylashgan, Polineziya -Gavayi, Samoa, layn, Jamiyat, Tokelau va boshqa orollar esa aksincha, Avstraliyadan ancha olisda, Tinch okeanining janubiy va markaziy qismlarida joylashgan. 177° sharqiy uzunlikdan g'arbda joylashgan Mikroneziyaga-Karolina, Marshall, Mariana, Gilbert va boshqa orollar kiradi. Yangi Gvineya orolidan shimolda, Filippin orollaridan sharq tomondagi akvatoriyada tarqalgan. Bunday bo'linish tarixiy va etnografik bo'linish bo'lib, Okeaniyaning genetik va tabiiy geografik belgilariga qarab bo'linishiga to'g'ri kelmaydi.

Yangi Gvineyadan yangi zelandiyagacha cho'zilib, Fidji orollarini ham o'z ichiga olgan orollar yoyi va bu orollarni materikdan ajratib turgan suv havzalari Tinch okean geosinklinal mintaqasining davomi hisoblanadi. Bu orollar yoyi iqlimining hosil bo'lishi hamda organik dunyosining tarkib topishiga ko'ra Avstraliya bilan juda bog'langan. Sharqiy osiyodagi orollar Yevrosiyoga nisbatan qanday joylashgan bo'lsa, bu orollar ham Avstraliyaga nisbatan shunday joylashga. Tinch okeanning ochiq qismidagi orollar vujudga kelishiga ko'ra Tinch okean platformasi bilan bog'langan va ular mavjudligi vaqtida hech qachon yirik quruqlik ta'sirida bo'lmagan. Bu orollar tabiati juda xilma-xil va Avstraliya materigi tabiati bilan hech qanday aloqasi yo'q.

Avstraliyani shimol tomondan epikontinental Timor va Arafur dengizlari, shuningdek Karpentariya qo'ltig'i o'rab turadi. Materikning Hind okean suvi yuvib turadigan g'arbiy va shimoliy sohillari bo'ylab dengiz sayozligi polosasi cho'zilgan. Avstraliyani sharq tomondan Marjon, Tasman dengizlari o'ragan, ular okean tipiga yoki oraliq tipga kiruvchi chuqur botiq havzalardan iborat bo'lib, katta 5000 m dan ortiq chuqurliklarga ega.

Suv osti ko'tarilmalari bilan bo'lingan Fidji, Yangi Kaledoniya botiqlari va boshqa botiqlar ham juda chuqur. Suv osti ko'tarilmalari va tizmalari ustida materik hamda marjon orollar joylashgan. Orollar yoyi bo'ylab tashqi tomonda, qisman dengiz tomonda ham suv osti cho'kmalari-Melaneziya, Vityaz, Tong, Kermadek va boshqalar cho'zilgan, ularning eng chuqur joylari 9000 va hatto 1000 m dan ham ortadi.

Avstraliyani shimol va shimoli-sharqdan o'rab turgan dengizlarning suv harorati butun yil bo'yi $+27^{\circ}$, $+28^{\circ}$ ga teng. Marjon dengizi janubida qishda $+19^{\circ}$ C gacha, Tasman dengizida esa $+16^{\circ}$ $+17^{\circ}$ C gacha tushib qoladi. Marjon dengizidan materik qirg'og'i bo'ylab janub tomonga iliq Sharqiy avstraliya oqimi keladi. Suvning sho'rliги hamma joyda 34,5-35,5 % ga teng.

Suv haroratining doim yuqori bo'lishi marjon qurilmalarning rivojlanishi uchun qulaylik tug'diradi. marjon qurilmalari Marjon dengizida ayniqsa keng tarqalgan. Marjon dengizida materik sayozligi bo'ylab Katta To'siq Rifi 2300 km

masofaga cho'zilgan. Uning kengligi janubda 150 km ga yetadi. Rifning notekis, eroziya natijasida parchalangan yuzasini qalqish vaqtida suv bosadi. Rifni kesib o'tadigan tor kanallar ochiq dengizni Katta laguna bilan bog'lab turadi. Lagunaning chuqurligi 50 m dan oshmaydi. Unda kemalar qatnashi mumkin va qirg'og'ida Avstraliyaning yirik portlari joylashgan. Keyingi yillarda marjon qurilmalariga benihoya ko'payib ketgan dengiz yulduzlari qattiq zarar yetkazmoqda, ular hoziroq Katta To'siq rifining buzib yubordi va tabiatning bu ajoyib hosilasini butunlay barbod etish xavfini solmoqda.

Hind okeanda suv harorati janubga tomon pasayib boradi. Materikning g'arbiy qirg'oqlari yaqinidan G'arbiy Avstraliya salqin oqimi o'tadi, lekin u faqat qishda paydo bo'ladi va suv hamda havo haroratini ko'p pasaytirib yubormaydi.

1.2. AVSTRALIYA MATERIGI TABIATI.

Avstraliya tabiatining boshqa qit'alardan farq qiladigan bir talay xususiyatlari bor. Avstraliya avvalo reliktlar materigidir. O'simliklar bilan hayvonlarning relik turlari endemiklarning g'oyat ko'pligi va nihoyatda qadimiyligi bilan farq qiladi, ular Avstraliyada bu qit'a uzoq vaqt yakkalanib turganligi tufayli saqlanib qolgan. Eroziya natijasida bo'linmagan keng qadimgi tekis yuzalar materikda saqlangan. bu tekis yuzalar laterit ardalar bilan qoplangan, shuning uchun Avstraliya rel'yefi tekisdir. Hozirgi vaqtdagi cho'l va chala cho'l oblastlar qadimgi vaqtda suvga serob bo'lganligini ko'rsatuvchi izlar ham yo'qolib ketgan emas. Ikkinchidan, Avstraliyada burmali yosh tog'lar yo'q, otilib turadigan vulkanlar va hozirgi zamon muzliklari ham yo'q. Ularning hammasi materikning geologik tarixiga va iqlimning geologik o'tmishdagi o'zgarishlariga bog'liq bo'lib, qit'a tabiatiga nihoyatda o'ziga xos xususiyatlar baxsh etadi.

Avstraliyaning geografik o'rni va iqlimining hozirgi zamondagi xususiyatlariga ko'ra, qit'a ichida tropik cho'l landshaftlari keng tarqalgan. Materikning shimoliy chekkasi savannalar va siyrak o'rmonlar bilan band, janubiy chekkasi esa subtropik tipdagi landshaftlar bilan band: qit'aning nam janubi-g'arbiy va janubi-sharqiy chekkalarida o'rmon landshaftlari, yog'ingarchilik

kamroq bo'ladigan ichki rayonlarida esa savanna, dasht va chala cho'l landshaftlari bor.

Materikning sharqiy chekkasi bo'ylab cho'zilgan tog'lar Tinch okeandan keladigan nam shamollarni ushlab qoladi va nam o'rmon landshaftlarining qirg'oq bo'yidagi pasttekislikning kambar polosasida va shamolga o'ng yonbag'irlarida tarqalishiga imkon beradi.

Avstraliya xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Shulardan ba'zilar ahamiyati va zaxirasi bo'yicha dunyoda yuqori o'rinlarni egallaydi. Temir rudasi, mis, nikel, uran rudalari, boksitlar, ko'mir, oltin, olmos konlari shular jumlasidandir.

Temir rudasiing yirik konlari (Tom-Prays, Maunt, Maunt-Ueylbek) mamlakat g'arbida, oltin konlari (Kambalda, Leonora) janubi-g'arbida, nikel rudalari konlari (Grinveyl) Shimoli-sharqiy va janubi-G'arbiy qismlarida, alyuminiy (boksit) rudalari konlari (dunyoda eng yirik kon Ueypa-York yarimorolida topilgan, yana Gov va boshqalar), uran ruda konlari (nabarlek) Shimolda, polimetall ruda konlari (Broken-Xill va boshqalar) janubiy va shimoliy qismlarda, olmos konlari (uinton va boshqalar) mamlakatning sharqiy va janubiy hududlarida joylashgan. Ko'mir konlari materikning janubiy va janubi-sharqiy qismlarida topilgan, neft va tabiiy gaz m mamlakatning sharqiy hududlarida va g'arbida, okean shelfida qazib olinadi.

Materikning endemik florasida bo'r davrining o'rtalaridan boshlab, ikki joyda-janubi-g'arbida va janubi-sharqida taraqqiy etgan. Evkaliptlar ularning 600 dan ortiq turlari, filloid akatsiyalar-ularning turlari 280 turi bor. Shuningdek banksiyalar, uzun bargli kazuarinalar va o'tsimon daraxtlar materikning endemik florasidir. Bu flora tarkib topgan ikkala makon to'rtlamchi davrgacha dengiz va ko'l havzalari bilan bo'linib turgan, hozirgi vaqtda esa ikkala makon o'rtasida materik ichidagi cho'llarning ekologik to'sig'i mavjud. Cho'llarning kserofit florasida asosan shimoliy va sharqiy Avstraliyaning gigrofitlari bilan mezofitlaridan vujudga kelgan.

19^o janubiy kenglikdan shimol tomonda shamolga o'ng yonbag'irlarda doimiy nam subekvatorial o'rmonlar bor, bular shimoliy sohilning galereya shaklidagi o'rmonlariga o'xshaydi. Nam ekvatorial o'rmonlarda palma, fikus, lavr daraxtlari ko'p, 1000 m dan baland joylarda araukariyalar va baland tanali bambuklar o'sadi.

Avstraliya va uning yonidagi Yangi Gvineya, Solomon orollari va tasmaniya faunasi florasidan ko'ra ham endemiklar va reliktlar ko'pligi bilan ko'zga tashlanadi. Avstraliya va uning yonidagi Yangi Gvineya, Solomon orollari va Tasmaniya Avstraliya zoogeografik oblastini tashkil etadi. Bu oblastda mezozoy va uchlamchi davr faunasining vakillari-masalan, Yerda yashayotgan xaltalilarning ko'pligi bizning zamonamizgacha saqlaniib qolgan, yuqori darajadagi sut emizuvchilar esa aksincha yo'q desak bo'ladi. Xaltalilar va tuban darajadagi boshqa hayvonlar Avstraliyaga bo'r davrida Malaya arxipelagi orqali quruqlikdan o'tgan deb taxmin qilishadi. Yuqori darajadagi hayvonlar, jumladan yirtqichlar paydo bo'lgan vaqtgacha Avstraliya Malaya arxipelagi yevrosiyoga bog'lanishdan mahrum bo'lgan. Avstraliyada yirtqichlar bo'lmaganligi xaltalilarning beto'xtov bemalol evolyutsiya qilishga imkon bergan. Xaltalilar neogen davrida va to'rtlamchi davrning boshlarida eng ko'p taraqqiy topgan. Faqat Avstraliyaga xos bo'lgan ikki kurak tishli xaltalilar kenja otryadi-kenguru, vombat, kuskus va hokazolar oilasi, xuddi o'sha vaqtda paydo bo'lgan. Ikki kurak tishli xaltalilar o'z ajdodi-ko'p kurak tishli xaltalilarga nisbatan ko'proq taraqqiy etgan.

Xaltalilarning taraqqiyoti yuksak darajadagi umurtqalilar bilan konvergensiyaning yo'lidan, ya'ni ularga o'xshash hayotiy formlarni vujudga keltirish yo'lidan borgan. Birday ekologik sharoitda yashaydigan yuqori darajadagi sut emizuvchilar bilan bir xil hayotiy tiplarning xaltalilarda vujudga kelganiga sabab shu. Kengurularning eng katta oilasi juft tuyoqlilarga o'xshaydi, vombatlar oilasi kemiruvchilarga yaqin turadi, kuskuslar oilasi uchar olmaxonlarga o'xshaydi.

Kenguru, vombat, kuskusning har xil turlari Avstraliyaning hamma hududida uchraydi. Yirtqich xaltalilar-bo'ri, shayton faqat tasmaniya orolida yashaydi, xaltali koala ayig'i ham o'sha orolda uchraydi.

Orqa chiqaruv teshigi bitta bo'lgan tuxum qo'yuvchi sut emizuvchilar-yexidna-cho'l va chala cho'l rayonlarida, o'rdakburun-janubi-sharqda Avstraliyada saqlanib qolgan. Yexidna yer betida yashaydi, chumolilar va va termitlar bilan oziqlanadi, o'rdakburun suvda hayot kechiradi va daryolarning aylanma joylarida uchraydi.

Avstraliyada yuqori darajadagi sut emizuvchilardan endemik ko'rshapalak va kemiruvchilar, shuningdek yovvoyi dingo iti yashaydi. Dingo iti Avstraliya materigiga odam bilan birga borib qolgan.

Avstraliyada qushlardan endemik emu tuyaqushlari-asosan G'arbiy Avstraliyada, kazuarlar faqat Shimoliy Avstraliyada, kadu to'tiqushlar kenja oilasi, liradum, jannat qushi, begona o't talab tovuqlar-o'simlik qoldiqlarining uyumiga tuxum qo'yadigan tovuqlar va qora oqqushlar-Janubi-G'arbiy Avstraliyada yashaydi.

Avstraliyada zaharli ilonlar, kaltakesaklar-jumladan zehrli kaltakesak ko'p. Kvinslend daryolarida ikki turli timsoh yashaydi. Baliqlardan ikki tomonlama nafas oluvchi qadimiy seratodani aytib o'tish zarur. Bu baliq ham Kvinslend daryolaridagina uchraydi. Bo'g'im oyoqlilarning turlari juda ko'p. Iskap topar, pashsha, chayon va zaharli o'rgimchaklar ko'p. Avstraliya bosib olinayotgan vaqtda unga qoramol, qo'y, echki, quyon-mislsiz darajada ko'payib ketgan, tulki, ko'pgina yevropa qushlari keltirilgan edi, ular Avstraliya iqlimiga yaxshi o'rganib qolgan.

2.1. XVI-XVII ASRDA AVSTRALIYANING TADQIQ ETILISHI.

Peru ispanlar tomonidan to'liq bosib olingandan so'ng, ular Peru bilan Filippin o'rtasidagi aloqalarni Tinch okeanning janubi orqali yo'lga qo'yishmoqchi bo'ldilar. Tinch okeanning shimolida bo'lgani kabi ekvator dan janubda subtropik kengliklarda shamollar g'arbga qarab esishini dengizchilar bilishardi. O'sha davrdagi kosmograflarning fikricha, Magellan juda shimolga suzgan edi, shuning uchun olovli Yer kabi Gvineyaning janubida hali yarim orollar yoki orollar bo'lishi kerak edi. Bu mifologik materikni ular lotinchasiga "Terra australis incognita" Noma'lum janubiy Yer deb nomlashgandi.

Perulik zamindorlar tomonidan qo'llab quvvatlangan ispan dengizchilari Tinch okeanining janubidan yangi yerlarni ochib, ular aholisini qulga aylantirish va ko'plab oltin konlarini topish maqsadida yo'lga otlanishardi.

1567 yilning noyabr oyida Alvaro Mendan'ya de Neyra boshchiligidagi ekspeditsiya 2 ta kema Peruning Kal'yao portida yo'lga chiqadi. Xuddi Magellan kabi Mendan'ya ham Tinch okeanni hech qanday to'siqlarsiz kesib o'tdi. 1568 yilning 15 yanvarida u tomonidan 7^o janubiy kenglikda joylashgan Ellis oroli, 1 fevralda Ronkador rifini, 7 fevralda Santa-Izabel orolini kashf etdi. Qirg'oq yaqinida balandligi 1000 m dan yuqori tog'lar tropic 'rmonlar bilan o'ralgan edi. Mendan'ya Bibliyada rivoyat qilingan Shoh Salomon Iyerusalim machitini bezash uchun oltin olib kelinadigan Ofir mamlakatiga kelib qoldim deb o'ylaydi va orollarni Solomon orollari deb nomlaydi. Shuningdek, ular tomonidan Malaita, Guadalkanal, Shuazel, San-Kristobal orollari ham tadqiq etildi. Mahalliy xalqlar bilan yuzaga kelgan kelishmovchiliklar tufayli Mendan'ya ortga qaytadi.

Faqatgina 25 yildan so'ng 4 ta kemada Mendan'ya Solomon orollariga yo'lga chiqadi. U kasal bo'lganligi tufayli ekspeditsiyaga uning xotini Izabella Barreto rahbarlik qiladi. 1595 yilning 21 iyulida ispanlar vulqon orollarini kashf etadilar va Markiz orollari deb nomlaydilar. G'arbga suzib 7 sentabrda vulqon orollariga yetib keladi va Santa Krus deb nomlaydi. Mendan'ya vafot etadi va uning xotini hukmronlikni to'liq qo'lga oladi. Shimoli sharqqa suzib, Karolin orollari orqali 1596 yilning fevralida Filippinga yetib keladi. Ikki yarim yildan

so'ng mohir dengizchi Pedro Kiros boshqarayotgan kemada Urdaneta yo'li orqali Meksikaga yetib kelishadi. Izabella Barretoni ispan dengiz tarixchilari hozirgi kungacha "Dunyodagi birinchi flot boshqaruvchi ayol" sifatida sharaflaydi.

1605 yilning dekabrda Kal'yao portidan Pedro Kiros rahbarligidagi uchta kema yo'lga chiqadi. U avvalgidan janubroqdan suzib, 1606 yilning yanvar oyida 25⁰ janubiy kenglikda 2 ta Dyusi va Genderson orolarini uchratadi. Shunday qilib, u keyinchalik Tuamotu deb nomlangan Janubiy Polineziya arxipelagining ochilishiga asos soldi. Faqatgina o'tgan asrda Tuamotu 75-80 atollardan va behisob marjon orollardan iborat bo'lib, maydoni 825-885 kv.km. ekanligi aniqlandi. Ispanlar 21 fevral va 2 martda 2 ta kichik orolga: Karolayn va Rakaxangaga tushdi. Bir qancha orolarni yo'lda kashf tib, Kiros janubda 27 aprelda katta yerni ko'rdi. Kiros bu yerni Avstraliya deb nomlaydi va Yangi materikni kashf etdim deb o'ylab, xristianlar shahri –Yangi Iyerusalimga asos soldi. Bu yerdan xristian dini mahalliy xalqlar orasida tarqalishi kerak edi. Kiros 2 ta kemani tashlab, o'zi Meksikaga qaytadi. U o'ziga yangi yerlarning kashfiyotchisi – ikkinchi Kolumb nomini olish va bu yerlardan keladigan daromadlarning bir qismiga egalik huquqini olish maqsadida Ispaniyaga boradi. Orqaga qaytishda Panamada u kasal bo'ladi va vafot etadi.

Qolgan 2 ta kemaning kapitanlari Diyego Prado-di- Tovar va Luis Vaes Torres 1606 yilning iyunida yangi ochilgan yerlarni tekshiradi va uning atrofini aylanib, Kiros yangi materikni emas, balki uncha katta bo'lmagan orollarni ochganigaishonch hosil qiladi. Shundan so'ng ular shimolga suzib, birinchi marta marjon dengizidan o'tib, 14 iyulda Luiziada arxipelagining orollarini ochadi.

O'zining hisobotida Torres Yangi Gvineyaning janubiy qirg'og'i yaqinida 1650 km suzib, Papua qo'ltig'ini kashf etadi. Kuchli shamol va va bo'r natijasida qirg'oqdan uzoqlashadi. Taguladan turib u uzoqda yana katta orollarni ko'rganini yozadi. Haqiqatda esa bu Avstraliyaning shimoliy qirg'oqlari edi. Yana 1000 km o'tib kemalar shimolga suzib, Yangi Gvineyaga yetib borishadi. Molukkadan o'tib, Torres va Prado 1607 yilda Manilada hisobotlarni taqdim etishdi. Ular o'zlarining

suzishlari oqibatida yangi Gvineya janubiy materikning bir qismi emas, balki ulkan orol ekanligi va u bir qancha orollardan (haqiqatda Avstraliyadan) bo'g'oz orqali ajralib turishi isbotlandi.

Ispan hukumati bu buyuk kashfiyotni qattiq sir saqlaydi. Faqatgina 150 yildan so'ng 7 yillik urush vaqtida inglizlar Filippinni egallab, Manilaga bostirib kirib arxivlar ochilgan paytda ispanlarning Tinch okeandagi kashfiyotlari to'g'risidagi ma'lumotlar ma'lum bo'ldi. Tasodifan Torres hisobotining Nuxxasi 1756 yilda ingliz gidrografi Aleksandr Dalrimpl qo'lga tushib qoladi. U o'sha vaqtda 1768 yilda hukumat tomonidan okeaniyani tadqiq etishgajo'natilgan Jeyms Kukning raqibi edi. Jeyms Kuk ispanlardan so'ng ikkinchi bo'lib, 1770 yilning avgustida Avstraliyani Yangi Gvineyadan ajratib turuvchi bo'g'ozdan suzib o'tadi. Dalrimpl esa 1769 yilda ispanlarning maxfiy hujjatini bostirib chiqaradi va bu bo'g'ozni Torres bo'gozi deb nomlashni tavsiya etadi.

2.2. AVSTRALIYA VA OKEANIYANING GOLLANDLAR TOMONIDAN KASHF ETILISHI.

Gollandlarning janubiy dengizlardagi hukmronligining uyg'onishi Lissabon qamoqxonasidan boshlanadi. U yerga XVI asrning 90 yillarida qarzlari uchun golland dengizchisi Kornelis Xautman tushadi. O'zining qamoqdosh do'stlaridan portugal dengizchilardan Xautman Portugaliyadan Hindiston va Molukkaga eltuvchi sir saqlanayotgan yo'llar haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Xautman o'z yurtida bu ma'lumotlarni "Olis o'lkalar tashkiloti" ga yetkazadi. Portugallarning gollandlar bilan aloqalarni chegaralab qo'yishi oqibatida golland kompaniyasi xautmanni qamoqdan qutqarib, uni "Ziravorlar orollari"ga olib boruvchi ekspeditsiyaga rahbar qilib qo'yishga sabab bo'ldi. 1595 yilda Xautman rahbarligidagi 4 kema Gollandiyani tark etadi. Afrikani aylanib o'tib, portugallarning ko'ziga tashlanmasdan Hind okeaniga yetib keladi. Sumatraga yetib kelguncha 17 oy o'tadi, u yerdan yava oroliga o'tishadi. Ko'pgina qimmatli mollarninortib 1598 yilda vataniga qaytadi. 1598 yilda tezda yangi 8 ta kemadan iborat ekspeditsiya tashkil etilib, unga Yakob Van-Nek rahbarlik qiladi. 15 oydan

so'ng juda ko'p ziravorlar va boyliklar bilan yava va Molukkadan kemalar qaytishadi.

Xautman 1600 yilda 8 ta kemada yo'lga chiqib, Mavrikiy orolida to'xtaydi. Mavrikiyning ahamiyatini birinchi bor to'g'ri baholaydi. U Molukkaga borib molar bilan qaytishda o'ldiriladi, 4 ta kemasi cho'ktiriladi, lekin qolgan 4 tasi katta foyda keltiradi. XVI-XVII asrda chet elga chiquvchi savdo kompaniyalari Gollandiyada xuddi qo'ziqorinlardek ko'payib ketadi. O'sha davrda tasavvurga sig'magan darajada ya'ni 84 kema jo'natildi. Ziravorlar narxi Indoneziyada 2-3 marta ko'tarilib, yevropa bozorlarida ularning narxi deyarli yarmiga tushib ketadi. Shunda ko'p kompaniyalar tanazzulga uchraydi. 1602 yilda barcha kompaniyalar birlashib yagona Niderlandiya Ost-Indiya kompaniyasini tashkil etishdi.

Kompaniya boshida dunyo bo'yicha savdo monopoliyasini o'rnatishga harakat qildi. Molukkada Mustahkam o'rnashib olib, ular mahalliy hukumatdan Banda orolida Muskat yong'ogini sotib olishga erishdilar. 1605 yilda gollandlar Amboynu orolini egallashdi, bir necha yillardan so'ng gollandlar Molukkadan Seylondan va boshqa Hind okeani davlatlaridan portugallarni siqib chiqara boshlashdi. Koloniyalarning birinchi hukmdori Kornelis Kun Yavaning katta moliyaviy va siyosiy ahamiyatini to'g'ri baholab, 1619 yilda Bataviyani tashkil toptirdi. U so'ngra Jakarta deb nom oldi. Shu vaqtdan boshlab Yava muhim golland koloniyalari markazi bo'lib qoldi. Gollandlar Yevropa va Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalarini yurituvchi muhim davlat bo'lib qoldi.

Gollandlar Indoneziya orollarida paydo bo'lgan davrlardan boshlab, ular yaxshi Umid burnidan bu orollarga yangi yo'llarni axtara boshladilar. Gollandlar janubroqdan suzib g'arbiy shamollar yordamida Yava oroli joylashgan meridiangacha suzishar, so'ngra shimolga harakatlanib, Hind okeanida suzib ular Avstraliya qirg'oqlariga juda yaqin kelishar ba'zan unda bo'lishar ham edi. Lekin bu yerdagi deyarli hayot yo'q cho'llarni ko'rishadi. Shuning uchun Niderlandiyaning Ost –Indiya kompaniyasi qullarni ovlash maqsadida bu hududda izlanishlar olib bordi. Avstraliyani kashf etishda XVII-XVIII asrlarda Yangi

Gollandiya deb atalgan bu materikdan ziravorlarning yangi makonini topish, oltin, olmos va marvaridlarni o'zlashtirib olish ishtiyoqi asos bo'ldi. 1605 yilning noyabr oyida G'arbiy Yavadan "Deyfken" kemasida Janubiy materikka Villem Yanszon yuboriladi. 1606 yilda u Yangi Gvineyaning janubiy qirg'oqlaridan suzib o'tadi va Torres bo'g'ozini sezmaydi. Keyp-York yarim orolidan o'tib $13^{\circ}50'$ janubiy kenglikda Kerver deb nomlangan burungacha suzib ortga qaytadi. Yangi Gvineyani janubiy materikning yarim oroli deb o'ylaydi. Haqiqiy Avstraliya kashf etildi.

Yantsdan keyin o'n yildan so'ng Bataviya yo'lida Yangi Gollandiyaning qirg'oqbo'yini birin-ketin dengizchilar kashf eta boshlaydilar. 1616 yilda "Endraxt" kemasidagilar 23° va $26^{\circ}30'$ janubiy kenglikda Endraxt yerlarini ochisadi. Uning kapitani Dirk Xartogs nomiga Shark qo'ltig'idan janubidagi Xartogszon oroli nomlanadi.

1618 yilda "Zevolf" kemasida $21^{\circ}20'$ janubiy kenglikdagi Avstraliya qirg'oqlarini kashf etishadi. 1619 yilda 2 ta golland kapitanlari Frederik Xautman va Yakob Edel Avstraliyaning g'arbiy qirg'oqlarini- 27° va $32^{\circ}30'$ janubiy kengliklar o'rtasidagi yerlarni, yarim orol va $28^{\circ}46'$ janubiy kenglikda tog'ni kashf etib ularga Edel Yerlari, Edel yarim oroli, Xautman tog'lari nomlarini berishadi. 1622 yilda "Levin" kemasining bizga noma'lum kapitani Avstraliyaning janubiy-g'arbiy qirg'og'i ya'ni Levin burnini topadi.

1623 yilda Bataviyadan Yan Karstensen boshchiligida 2 ta kemada "Pera" va "Arnxem" kemalarida ekspeditsiya yo'lga chiqadi. Ular ham Torres bo'g'ozini ko'rishmaydi va bu yerni Karstens "eng qoloq joy" deb ta'riflaydi.

Kolsterdt "Arnxem" da janubga yana biroz suzadi va ortga qaytadi. Yo'lda u yarim orolni- ya'ni "Arnxem Yeri" yoki Arnxemlend deb keyinchalik nom olgan yarim orolni kashf etadi. 1627 yilning yanvarida Piter Neyts Avstraliyaning janubiy qirg'og'ini Sent Fransis oroligacha bo'lgan Neyts arxipelagini ochadi.

1642 yilda Niderlandiya Hindistonning bosh hukmdori Anton Van-Dimen 2 ta kemada Bataviyadan Mavrikiy oroliga Abel Tasmanni jo'natadi. Bu yerdan u yuqori kengliklardan yangi Gollandiyani Solomon orollari orqali aylanib o'tishi, Hindistonga Chiliga ma'qul yo'lni axtarishi, Janubiy materikning boyliklarini o'rganishi lozim edi. Van-Dimen ataylab bu qiyin topshiriqni bajarish uhun Abel Tasmanni yuborib, unga kichikroq eski ikkita kemani beradi. Bunga uning shaxsiy sababi ham bor edi: Abel Tasman Niderlandiya Ost-Indiyasi general gubernatori Van-Dimenning qizi- Mariyaning qo'lini bu kambag'al shturman Abel Tasman so'rganligi uni izza qilgandi. Bu rivoyat Tasman Avstraliyaning sharqidagi kashf etilgan burunga Mariya Van-Dimen nomining berilihi bilan ham bog'liq.

1642 yilning 8 oktabrida Tasman Mavrikiydan janubga suzib, so'ngra sharqqa suzadi. 44-49⁰ janubiy kengliklarda u shimoli-sharqqa suzib, 24 noyabrda 42⁰25¹ janubiy kenglikda orolni kashf etadi. Hozirgi kunda Tasmaniya oroli deb ataladigan bu orolga "Van-Dimen Yerlari" deb nom beradi. Janubdan bu hududni aylanib o'tib, Storm qo'ltig'ini topadi. Abel Tasman orolni kashf qilganini bilmaydi va Van Dimen Yerlarini yarim orol deb o'ylaydi. Yana 150 yillardan so'ng Bass bo'g'ozi kashf etilmaguncha bu hudud yarim orol deb yuritiladigan 1642 yilning 13 dekabrda Yangi Zelandiyaning Fauluind burnini topadi va qirg'oq bo'ylab shimoli-sharqqa suzadi.

Tasman Yangi Zelandiyaning shimoliy orolini janubiy orolidan ajratib turuvchi bo'g'ozga kiradi, lekin uni qo'ltiq deb o'ylaydi. 1643 yilning 4 yanvarida bu orolning shimliy burniga yetib keladi va uni Mariya Van-Dimen deb nomlaydi. 5 yanvarda hozir Tasman dengizi deb nomlanadigan dengiz orqali okeanga chiqadi. Shimoli- sharqqa suzib 12 yanvardan 1 fevralgacha Tonga, Tongabata orollarini ochadi. Shimoli -g'arbga yo'nalib, 5-8 fevralda Fidji orollarining sharqini, jumladan, Taveuni, Vanua-Levu, Bitu Levu orollarini kashf etib, 5⁰ janubiy kenglikda g'arbga suzadi. U o'zi va Van-Dimen orzu qilgan Solomon orollari yonidan 22 martda suzib o'tib ketadi. 1 aprelda Yangi Irlandiyaga yaqinlashadi. Meridional yo'nalishda yangi Gvineya dengizi, Yangi Britaniyani

ochadi va uni yangi Gvineyaning bir qismi deb o'ylaydi. Yangi Gvineyani g'arbiy yo'nalishda aylanib o'tib Seram va Yavan dengizlari orqali 1643 yilning 15 iyunida Bataviyaga yetib keladi.

Tasmaning buyuk ekspeditsiyasi, Yangi Gollandiya Antarktida materigining bir qismi emasligini va hatto, unga yaqin ham kelmasligini isbotladi. Lekin Tasman zamondoshlari uchun bir savol yechimsiz qoldi: Yangi Gollandiya bu katta arxipelagmi yoki materikmi? Materik bo'lsa-uning qiyofasi qanday? Faqatgina XIX asrning boshida ma'lum bo'ldiki, Tasman o'zining 1642-1643 yerlardagi sayohati va u biror joyda haqiqiy Avstraliyaga yaqinlashmaydi. Van-Dimen yerlari bu Tasman oroli, Yangi Gvineya ham orol, Yangi Zelandiya materik qismi emas, balki alohida ikkita oroldir. 1644 yilda Tasman boshchiligidagi 3 ta kema Bataviyadan Sharqiy yo'nalishda chiqadi. Bu ekspeditsiyadan faqat 2 ta hujjat qolgan. Van-Dimenning Niderlandiya Ost-Indiya kompaniyasi direktorlariga xat va Abel Tasman kartasi saqlanib qolgan.

Kartadan ko'rish mumkinki, Yangi Gvineyaning janubi-g'arbidan Karpentariya qo'ltig'iga sharqiy va birinchi marta janubiy va g'arbiy qirg'oqlarini o'rganishgan. Marjon riflari tufayli ular yana Torres bo'g'ozini sezishmaydi. Keyp-York yarim orolining daryosi quyilish joyini topishadi. Bu ekspeditsiya Karpentariya qo'ltig'idan Katta Avstraliya qo'ltig'iga va Van-Dimen Yerlariga hech qanday o'tish yo'llari yo'qligini isbotladi. Roper daryosi quyilish joyini ochdi.

Tasman sayohatining buyuk natijasi shunda ediki, Shimoliy va G'arbiy Avstraliyaning Arnhem yeridan, Karpentariya qo'ltig'idan Endxart Yerigacha bo'lgan 12^0 janubiy kenglik, 137^0 sharqiy uzoqlikdan -23^045^1 janubiy kenglik, 113^030^1 sharqiy uzoqlikkacha bo'lgan aniq chegarasini chizishdi. 3,5 ming kilometrli gollandlar tomonidan ochilgan qirg'oq chiziqlari Yangi Gollandiyaning bir qismidir.

1644 yilda Tasman Bataviyaga qaytadi. Uning kelajakdagi taqdiri haqida faqat u 1645-1649 yillarda janubi-sharqiy dengizlarda suzganligi, 1653 yilda dengiz xizmatini tashlaganligi ma'lum. 1659 yilda vafot etgan. Birinchi ekspeditsiyasida tutgan kundaligi Gollandiyada 1674 yilda bosilib chiqadi va uch marta ingliz tiliga tarjima qilinib, 1694-1748 yillarda bosib chiqariladi. (Oxirgi nashrdan Jeyms Kuk ham foydalangan) to'liq shaklda u 1860 yilda "Abel Yanszon Tasman kundaligi, 1642 yilda Noma'lum Janubiy Yerga sayohat" sarlavhasi ostida nashr etiladi.

2.3. AVSTRALIYA VA OKEANIYA XVIII ASRDAN HOZIRGI DAVRGACHA O'RGANILISH TARIXI

Londonlik Vilyam Dampir o'sha davr uchun xarakterli zot bo'lib, bu davrda Angliya tropik dengizlarni o'z hukmi ostiga o'tkazmoqda edi. O'spirinligida u savdo kemasida yunga bo'lib, Shimoliy Atlantika va Hind okeanida suzadi. 1673 yilda u Vest-Indiyada yollangan askar bo'lib, Yukatanning janubi-sharqida o'rmon kesuvchi bo'lib ishlaydi. U yerdan u Tortuga oroliga borib ingliz va fransuz qaroqchilari bilan Antil orollari va Markaziy Amerikaning Karib dengizi qirg'oqlarida ispan kemalarini talon-taroj qilardi.

1683 yilda Dampir boshqa qaroqchilar bilan Gvineya qo'ltig'iga o'tadi. Gorn burnidan Tinch okeanga o'tadi. Amerika qirg'oqlari bo'ylab suzib, ular bir necha yil ispanlarning Tinch okean portlarini tunaydi. Ularning bazasi Xuan-Fernandes va Galapagoss orollarida edi. Marjon orollari, Filippin, Molukkada bo'lib, Dampir 1688 yilning boshida Avstraliyaning shimoli-g'arbiy qirg'ogiga yetadi. Levek burnidan tushib, Dampir Yerlari deb atalgan hududning (Avstraliya yarim oroli) ichkari qismigacha kirib boradi. Dampir bu orol yoki materikning bir qismi ekanligini aniqlay olmaydi, lekin bu Osiyo emasligini aniq ta'kidlaydi. Bu hududda biror daraxt, donli o'simliklar o'smasligini, sabzavotlar yo'qligini aytadi. Shuningdek birorta chuchuk suv zahirasini, birorta hayvonniko'rmaganligini ta'kidlaydi. Lekin shunday bo'lsada daydib yurgan qoratanli ovchilarni uchratadi

va ular haqida shunday fikr bildiradi:”hatto gottentotlar ham bu qoratanlilar oldida jentlmenga o’xshab ko’rinadilar”.

Bu yerdan Dampir Indoneziyaga o’tadi. 3 yilni Janubiy Osiyoda o’tkazib, 1691 yilda Londonga boradi va shu bilan dunyo aylana sayohatni amalgam oshiradi. 1697 yilda u “Dunyo aylana Yangi sayohat” nomli kitobini nashr ettiradi.

1699 yilda Dampir “Robak” kemasining kapitani bo’lib, Yangi Gollandiyaga jo’naydi. Yaxshi Umid burnidan o’tib, G’arbiy Avstraliyaga yaqinlashadi. 1700 yilning fevralida 25^0 dan 20^040^1 janubiy kenglikkacha 800 km masofadan ko’proq qirg’oqlarni kartasini chizadi. 20^032^1 janubiy kenglikda kichik arxipelagni ochadi va Timor orollaridan o’tib, Yangi Gvineyaga o’tadi. Voygeo oroli yaqinida Dampir bo’g’ozini ochadi va, sharqqa suzib 25-26 fevralda 1^030^1 janubiy kenglik, 150^0 sharqiy uzoqlikda Sent-Matias orolini kashf etadi. Uning janubida 2^030^1 janubiy kenglikdagi yer bo’ylab 500 km janubi-sharqqa suzadi. Mart oyi oxirida uni Yangi Gvineyaga eltuvchi bo’g’ozni topadi. Bu yangi yerni Yangi Britaniya deb nomladi. Indoneziya dengizi, Hind okeani va Yaxshi Umid burnidan o’tib, Angliyaga qaytadi.

1705 yilda kemani boshqarib Dampir Tinch okeanda suzadi, 1707 yilda “Dunyo aylana sayohat” larining 3 tomi bosmadan chiqadi. 1708-1711 yillarda bosh shturman vazifasida Dampir ikkinchi marta Yer yuzasini aylanib chiqadi. Ekspeditsiya rahbari Rodjers hech qanaqa kashfiyot qilmaydi, lekin “1708-1711 yillardagi Dunyo aylana sayohat” kitobini yozadi. Bu kitobda “Aleksandr Selkerk qanday 4 yilu 4 oy inson qadami yetmagan orolda yashagani haqida” hikoya yozadi. 1704 yilda Selkerk kapitani bilan bo’lgan kelishmovchilikdan so’ng, Xuan-Fernandes oroliga tashlab ketiladi. 1709 yilda Rodjers uni qutqarib oladi. U echki terisini yopingan va gapirishni ham deyarli unutgan edi. Selkerk haqidagi hikoyalarning kuchli ta’sirida Daniel Defo o’zining “Robinzon Kruzo” sini yaratdi.

Jeyms Kuk sayohatlari. Jeyms Kuk 1728 yilda Shimoliy Yorkshirning bir qishlogida tug'iladi. U kambag'al oilada dunyoga kelib, 9- farzand edi. 13 yoshdan qishloq maktabiga qatnab, o'qish va yozishni, arifmetikani o'rgandi. 17 yoshida savdogarga yordamchi va 1746 yilda Nyukasldan toshko'mir tashuvchi kemaga yordamchi bo'lib ishladi. Ikki yildan so'ng Gollandiya va Norvegiyaga boruvchi kemalarda yordamchi va yana ikki yil dengizchi bo'lib ishladi. 1752-1755 yillarda kapitan yordamchisi bo'ldi. 1758 yilda Kanadaga Avliyo Lavrentiy daryosi bo'yida fransuzlarga qarshi kurashuvchi kemada shturman bo'ldi.

Kanadadagi jang inglizlarning g'alabasi bilan tugadi. Jeyms Kuk shturmanlik qilayotgan kema Galifaks portida 1759-1760 yil qishida ishsiz turdi. Kuk ko'p bilimga ega emas edi, lekin izlanuvchan, kuzatuvchan va fikrlab ish qilardi. 1762 yilning kuzida Kuk Plasenshiya qo'ltig'ini shunday mukammal tavsifini qilib chiqadiki, natijada gubernator unga Nyufaundlend va Labradorning g'arbiy qirg'og'ini mukammal o'rganishni topshiradi.

1764-1767 yillarda Kuk Nyufaundlend va Labradorning bosh gidrografi lavozimida ishlaydi. Orol qirg'oqlari chizmasini chizadi, bir nechta yirik orollarni kashf etadi va kartaga tushiradi. 1765 yilda Yamaykaga xizmat safariga jo'natiladi va Gonduras qo'ltig'ini o'rganadi.

1768 yilda Britaniya admiralligi janubiy Tinch okean ekspeditsiyasini tashkillashtirdi. Buning sababi 1769 yil 3 iyunda Venera sayyorasi quyosh diskidan o'tishini kuzatish edi. Bu vaqtda Uollis dunyo aylana sayohatdan qaytgan va admirallik Taitini eng ma'qul kuzatish joyi deb bildi. 7 yillik urushdan so'ng Angliya Atlantika yo'llarida hukmron va Hind okeanida ham qulay o'rinlarni egallagan edi. Tinch okean hali o'zlashtirilmagan va ingliz hukumati 1767 yilda fransuz Bugenvil o'sha okeanda katta ekspeditsiya bilan jo'natilganligidan tashvishda edi. Tinch okeanni ham o'zlashtirish, muhim yo'llarni egallash va orollarni ochib ularning boyliklariga ega bo'lish inglizlarning asl niyati edi. Admirallik bu ekspeditsiyaga olim emas, balki harbiy dengizchi boshchilik qilishi lozim deb hisolaydi. Kuk nomzodini ko'pchilik quvvatlaydi. Lekin uning

kambag'al oiladan chiqqanligi, kemada ofitser-jentlmenlarga rahbarlik qilishi lozimligi biroz muammo tug'dirardi. Kuk ekspeditsiyani boshqarish uchun barcha qobiliyatlarga ega edi: u sovuq mo'tadil, tropik dengizlarda suzgan u gidrograf, topograf va amalda astronom edi.

Kuk 87 kishilik ekipaj (13 ta askar) "Indevor" kemasida yo'lga chiqadi. Ekspeditsiyaga yana 2 kishi rassom va olim: Charlz Grin-astronom, Jozef Banks-yosh juda boy, keyinchalik Britan-Afrika tashkilotining asoschisi, Qirollik tashkiloti a'zosi, o'zining hisobiga beshta xizmatchisi bilan sayohatga chiqqan edi. "Indevor" 1,5 yillik oziq-ovqat bilan ta'minlangan va 22 ta pushka bilan qurollangan edi.

1768 yilning 26 avgustida "Indevor" Plimutdan chiqib, 13 noyabrda Rio-de-Janeyroga yetadi va 7 dekabrda janubga suzadi. 1769 yilning 16 yanvarida Olovli Yerning janubi-sharqida to'fondan qochib Bien-Suseso buxtasida qo'nim topadi. Kuk Olovli Yerliklarning turmush tarzi, madaniyati, ko'rinishi, ularning kiyimlari, ish qurollari, taqinchoqlari haqida muhim ma'lumotlar yozadi.

25 yanvarda Gorn burnini kesib o'tib, 13 aprelda gaitiga yetib keladi. 1769 yilning 3 iyunida Grin yaxshi ob-havoda, Quyosh diskidan Veneraning barcha o'tish fazalarini kuzatdi. 26-iyundan -1 iyulgacha Kuk Banks bilan qayiqda orolni aylanib chiqadi. 9 iyulda Kuk Gaitini tark etadi. Polineziyalik Tupiya va uning o'g'lini xizmatga oladi. Tupiya suzish vaqtida katta xizmatlar qiladi: Okeaniyada yo'lboshchilik, inglizlar va polineziyaliklar o'rtasida tarjimon. 14 iyul-9 avgustda Taitidan shimoli-g'arbda to'rtta orolni kashf qilishadi va uni Kuk Jamiyat orollari deb nomlaydi.

Kuk avval janubda materik axtaradi, so'ngra 2 sentabrda g'arbga suzib, 1769 yilning 8 oktabrida $38^{\circ}15'$ janubiy kenglik, 178° sharqiy uzoqlikda noma'lum hududga keladi va bu buxtani "Poverti" ya'ni 'Kambag'al" deb nomlaydi. Ular o'zlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqatni topisholmaydi.

Kuk qo'shni qirg'oqlarni ham tekshirib, uning katta yer ekanligini aniqlaydi. 5 kun sekin suzib, Xoks qo'ltig'ini topadi. 1769 yilning 15 noyabrida bu mamlakatning Britaniyaga qo'shilishini e'lon qiladi. 18-25 noyabrda Xauraki qo'ltig'ini, shimol ochiq okeandan ajralib turuvchi, Katta va Kichik Bar'yer riflarini topadi. Qirg'oqlarni tekshirib Kuk bu orollar Tasman tadqiq etgan Yangi Zelandiya ekanini aniqlaydi. Shuningdek, 23 yanvarda Sharqiy dengizdan Tasman dengiziga o'tuvchi bo'g'ozi topib uni Koroleva Sharlotta bo'g'ozi deb nomlaydi. (Hozir Kuk bo'g'ozi) Kuk yangi Zelandiyaning Shimoliy orolini o'rganib chiqib, janubiy orolni tadqiq etadi. Bu janubiy orol shimoliysidan ham kattaligini aniqlab, 1770 yilning 27 martida (150,5 ming kv.km) orolni va butun Yangi Zelandiya atrofini (4000 km dan ko'proq) masofani bosib o'tadi.

Kukning yirik natijasi bo'lib, u noma'lum materikni atrofini chegaraladi va katta ikkilik orol- maydoni 36 ming. kv.km.li va Buyuk Britaniya orollarining antipodi bo'lgan –Yangi Zelandiyani tadqiq etdi.

1770 yilning 1 aprelida Kuk Yangi Zelandiyani tark etib, g'arbga suzadi va 19 aprelda qirg'oqni ko'radi. Shimolga suzib, qirg'oq atrofi o'rmon bilan qoplanganini, mahalliy xalqlar yashash tarzi past darajada ekanligini aniqlaydi. 28 aprel -6 mayda daraxt va chuchuk suv olib, bu qo'ltiqni Botanika deb nomlaydi, chunki Banks va Solander bu hududdan juda ko'p turli o'simlik yig'adilar. Shimolga suzib, bir necha kilometrdan so'ng u Port Djekson deb nomlagan, qo'ltiqni ko'radi. Bu yerda keyinchalik 1788 yilda inglilar tomonidan Sidney shahri barpo etilib, u hozir Botanik qo'ltig' gacha cho'zilgan.

15 mayda Yangi Yerning sharqiy burniga yetib kelib, uni Bayron burni deb nomlashdi. 17 mayda Morton oroli yaqinidan o'tib, Morton qo'ltig'ini topishadi. (1824yilda Morton qo'ltig'ining g'arbiy qirg'og'ida Brisben shahri qad ko'taradi) Qirg'oqbo'yida marjon riflariga duch keladi. 21 avgustda 10⁰40¹ janubiy kenglikda York burnini va bir qancha mayda orollarni ko'radi. 22 avgustda Torres bo'g'ozi ko'rinadi. Endi hech shubha qolmagandi- bu Yangi Gollandiyaning sharqiy qirg'og'i, York burni esa eng shimoliy nuqtasi edi. 22 avgustda Kuk bir orolga

ingliz bayrog'ini o'rnatadi va ular $10^{\circ}40'$ - 38° janubiy kengliklar orasidagi hududlarni ingliz yerlari deb, uni Yangi Janubiy Uels deb nomlaydilar.

16 sentabrda Kuk Arafur va Timor dengizlaridan o'tib, Roti oroliga, 2 oktabrda Yavaga, so'ngra Bataviyaga boradi. Shahzoda orolida 1771 yilning 15 yanvarigacha turishadi. Shu vaqt ichida Hind okeanida 30 kishi halok boladi, lekin Tinch okeanidagi suzishda atigi 1 kishi halok bo'lgan edi. 14 martda "Indevor" yaxshi Umid burniga yetib kelib, bu yerda 1 oy turadi. 1771 yilning 13 iyulida Kuk uch yillik dunyo aylana sayohatni amalga oshirib, Angliyaga yetib keladi.

XULOSA

Bilim va malakalar shakllanishi ko'pgina sabablarga: o'quv jihozlari va vositalari, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Lekin, o'qituvchi asosiy sabab hisoblanadi. O'qituvchi rahbarligining mazmuni shundan iboratki, ko'nikma egallash jarayonida u o'quvchilar harakatini tahlil qiladi. Ushbu ko'nikma va malakanini egallash uchun qanday bilimlar zarurligini aniqlaydi. Har bir dars mavzusini rejalashtirishda shakllantirish lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar maqsadi aniq belgilanishi lozim. Ta'limning mustahkamligi o'rganilgan bilimlarning, shakllangan ko'nikma va malakalarning xotirada uzoq vaqt saqlanishini bildiradi. Ilmiy bilimlarni egallash o'quvchilarning xotirasini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy faolligi va turli ishlarni bajarishdagi mustaqilligini rivojlantiradi. Lekin olingan bilimlar, hosil qilingan ko'nikma va malakalar keyinchalik ilmiy bilimlar tizimini o'rganishda tayanch sifatida xizmat qilishi uchun ular puxta o'zlashtirilishi, asosli mustahkamlanishi va o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishi kerak. O'quvchilarga ko'rsatmali, yaqqol jiddiy mantiqiy izchillikda berilgan bilimlar ularning xotirasida yaxshiroq mustahkamlanadi.

O'quvchilar maktab geografiya ta'limida o'zlari o'rgangan ob'yektlar, voqea va hodislar bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari va

quyidagi ko'rsatkichlar vositasida o'z bilimlarini ifodalay olishlari shart. Ular o'zlari o'rgangan ob'yektlar to'g'risida ayta olishlari, ko'rsata olishlari, aniqlab o'lchay olishlari, tasvirlay olishlari, tushuntira olishlari, bashorat qila olishlari lozim.

O'quvchining bilim olishga o'z xoxishi bilan intilishga va har bir mavzuni qiziqish bilan o'zlashtirishga erishish o'qituvchidan ko'p mehnat va malaka talab qiladi. O'quvchilarning izchil, uzluksiz, chuqur bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishga, mafkurasi, dunyoqarashi yetuk tafakkur sohibini yetishtirishga intilish kerak. Dars mobaynida beriladigan bilimlar, topshiriqlar o'quvchini ijodiy fikrlashga va ijodiy izlanishga undashi lozim.

Geografik tushunchalarni egallashdagi muhim xususiyat ilmiy tushunchalarni bir-biri bilan bog'lab tizim hosil qilishdir. Maktab tabiiy geografiya kurslari Yer haqidagi, geografik qobiqlar, tabiat komplekslari va komponentlar haqidagi yagona bilimlar tizimiga ega. Shu tufayli ham tabiiy geografik tushunchalar mantiqan va geografik mazmun jihatdan bir-biri bilan bog'liqdir.

6-sinf Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o'qitishda noan'anaviy dars usullarini qo'llash juda yaxshi samaralar beradi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning fanlarni yaxshi o'rganishlari, o'qitilayotgan mavzuni muammoli savol va topshiriqlar yordamida o'zlashtirishlari, ularda ijodkorlik, fikrlarini teran va aniq ifodalashga o'rgatish, o'rtaga tashlangan savolga keng mulohaza yuritib javob bera olish qobiliyatini shakllantirish maqsadlarida yuzdan ortiq noan'anaviy dars usullaridan foydalanilmoqda. Bu dars usullari mavzularni o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi, oquvchilar ongida ancha vaqtgacha esdan chiqmaydi, ularni teran mushohada yuritishga va darsdagi ishtiroklarini faollashtirishga yordam beradi.

Malakali va ijodkor o'qituvchi dars jarayonida qaysi noan'anaviy dars usullarini qo'llashni mavzuning mazmun mohiyatidan kelib chiqib ularni to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim darajalari, psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan

holda amalga oshiradi. O'quvchilarning Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Har bir materikning geografik o'rnini, tekshirilish tarixini yoritishda aqliy hujum, guruhli fikrlash, mehmon chaqirish kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ahamiyatlidir. Tarqatma materiallar bo'yicha mavzularni o'zlashtirish, o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash samarali natijalar beradi. Dars jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, mavzular bo'yicha tarqatma materiallar, elektron materiallar, slaydlar, elektron darsliklar, rel'yef maketlari, proyektor, kodoskopdan foydalaniladi. Mavzularni yoritishda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron didaktik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursi umumta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitilishi bois muammo juda murakkab bo'lmasligi, o'quvchilar unga mantiqiy fikrlab javob bera olishlari lozim.

“Mehmon chaqirish” usulidan foydalanib, o'qituvchi o'zi yoki biror malakali o'qituvchini ekspeditsiyalar qatnashchisi sifatida taklif etadi va u kashfiyotlar tarkibida ishtirok etgan shaxs sifatida mavzuni qiziqarli voqealar yordamida tasvirlashi mumkin. Hikoya qanchalik jonli va turli hodisalarga boy tarzda olib borilsa, bu dars o'quvchilar ongida ancha vaqtgacha saqlanadi va qiziqarli bo'ladi.

Qaroqchi Vilyam Dampir o'z sayohatlari natijalarini “1708-1711 yillardagi Dunyo aylana sayohat” kitobida yoritadi. Bu asarda Aleksandr Selkerk qanday 4 yilu 4 oy inson qadami yetmagan orolda yashagani haqida ma'lumotlar yozgan. Selkerk haqidagi hikoyalarning kuchli ta'sirida Daniel Defo o'zining hozir barchaga ma'lum bo'lgan, u haqidagi kinofilmlarni qiziqib tomosha qiluvchi

“Robinzon Kruzo” asarini yaratgan. Mana shunga o’xshash voqea va hodisalar geografik kashfiyotlar davrida juda ko’p sodir bo’lgan. Bu voqealarni qiziqarli tarzda o’quvchilarga yetkazish, bunda turli ta’lim vositalaridan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

O’quvchilarda ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish ularda geografik madaniyatni shakllantirishda katta rol o’ynaydi. Zamonaviy darslarda dars-seminar, dars-konferensiya, dars-sinov, dars-o’yin kabi ta’limni tashkil qilish shakllaridan keng foydalaniladi. Hozirgi zamon noan’anaviy darslari o’nlab ijobiy xususiyatlarga ega: ularni qo’llash orqali o’qituvchi faoliyatni tashkil etishda ijodkor bo’lishga, o’quv faoliyatida o’qituvchi va o’quvchining hamkorligi yetakchi bo’lishiga, o’quv jarayoni paytida o’quvchilar ortasida o’zaro muloqotlar, suhbatlar, tortishuvlar bo’lishiga, muammoli savollar va topshiriqlar, har xil murakkablik darajasidagi test savollari orqali o’quvchilarda ijodiy faoliyatlarni rivojlantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” Toshkent, “Ma’naviyat” 2008 yil
2. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari” Toshkent,”O’zbekiston” 2009 yil
3. Vlasova T.V. “Materiklar tabiiy geografiyasi” 2-tom, T. O’qituvchi, 1982.
4. Magidovich I.P. “Ocherki po istorii geograficheskix otkritiy. Moskva “Prosvesheniye” 1967 god
5. Mo’minov O. “Geografiya ta’limi metodikasi” Toshkent “O’qituvchi” 1986 yil
6. Popov S.V., Troitskiy V.A. “Puteshestviya i geograficheskiye otkritiya v XV-XIX vekax” Moskva “Nauka” 1965 god

7. Sabitova N.I., Z. Saidkarimova “Dunyoning tabiiy geografiyasi va topografiya asoslari” Toshkent, Universitet, 2007.
8. Qurbonniyozov R. “Geografiya o’qitish metodikasi” Urganch “Xorazm” 2001 yil
9. [www. huu. uz./kengash/ dowhload/geografiya.doc](http://www.huu.uz/kengash/download/geografiya.doc)
10. <http://www.huu.uz/tematir/geografiya/>